



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



Samarqand-2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha
prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abdusalam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas’ul muharrir: **PhD, dotsent Zokir
BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**
(O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: PhD, доцент **Зокир
БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ**
(Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAĞLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara İSLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV (Uzbekistan)

Technical staff: Rakhmatulla SHOKIROV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV (Özbekistan)

Teknik Personel: Rahmatullah ŞOKİROV (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Emrah YILMAZ

ÖZBEKİSTAN’IN KÜRESEL BAŞARILARINA SOSYOKÜLTÜREL BİR YAKLAŞIM VE
2024 YILININ ANALİZİ 8

МУСАЕВ Даянат Муса оглы

ЗНАЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ АЗЕРБАЙДЖАНА С УЗБЕКИСТАНОМ ДЛЯ
ОБЪЕДИНЕНИЯ ТЮРКСКОГО МИРА 21

Xurshid Sirojiddinovich JUMANAZAROV

TURKISTON O‘LKASIDA MUSTAMLAKA TIBBIYOTINI O‘RNATISHDAGI IJTIMOIIY
MUAMMOLAR 28

Ülkər HƏSƏNOVA

1926-CI İL I TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TARİXİ ƏHƏMİYYƏTİ 34

Türkan MAHMUDZADƏ

TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TÜRKCÜLÜYÜN İNKİŞAFINDA ROLU 43

RAHMONOVA Parvina

HINDISTON HUKMDORLARINING SAMARQANDGA TUHFASI 52

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Baxtiyor ABDUSHUKUROV

KUL TIGIN BITIGTOSHI VA O‘ZBEK TILI SHEVALARI 59

Tagandurdy BEKJAYEV

TÜRKMEN DİLİNDE TAKVİMLE İLGİLİ KİŞİ ADLARI 66

ALLAMBERGENOVA Muqaddas Ruslanovna

O‘RXUN-ENASOY OBIDALARI LEKSIK QATLAMINING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY
TILI FONETIK-SEMANTIK TIZIMIDA AKS ETISHI 72

SHUKUROV Ahad Axmatovich

ARXAIZMLARNING LINGVO-USLUBIY IMKONIYATLARI 81

BARZIYEV Oybek Xabibullayevich

ANDIJON ZILZILASI TAFSILOTLARIGA BAG‘ISHLANGAN AN‘ANAVIY SHE‘RIY
ASARLAR TAHLILI 90

MAMAJONOV Muhammadjon, OMONIDDINOVA Durdonaxon

PRAGMALINGVISTIKA VA TILSHUNOSLIKDA KO‘P MA‘NOLILIK MUAMMOSI 96

KARIMOVA Dilafro‘z Obidjonovna

AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING YETUK ARXEOLOG SIFATIDA
SHAKLLANISH YO‘LI 102

DJUMAMURATOV Kuanishbay

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOLORATIV BIRLIKLI FRAZEOLOGIZM-
LARNING KOMPONENTLI TAHLILI 113

Aynur CƏFƏROVA

AZƏRBAYCAN VƏ TÜRKIYƏ TÜRKCƏLƏRİNİN TERMİNOLOGİYASININ
İNKİŞAFINDA BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYIN ROLU 122

Nərmin RƏHİMOVA

BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ƏLİFBA VƏ DİL MÖVZULARI TÜRK
XALQLARININ ORTAQ PROBLEMİ KİMİ 131

Valida SHIKHALIYEVA

TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ORTAQ DİL MƏSƏLƏSİ DÜNƏN VƏ BÜGÜN 139

ESHMIRZAYEV Bahodir Djurayevich, ISMOILOV Behruzjon Isroilovich

ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI 150

RO‘ZIYEV QAHRAMON KUZIMURATOVICH

O‘ZBEK TILIDA “NON” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI 154

NABIYEVA Nodira Saidovna

LIRIKADA ILTIJO KONSEPTINI IFODALAYDIGAN JANRLAR 162

Nilufar NORPO‘LATOVA

SAMARQANDNING TARIXIY NOMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR 168

MELIBAYEVA Soxibaxon

O‘ZBEK ANTROPONIMLARI PRETSEDENT BIRLIK SIFATIDA 176

RAHMATOVA Sevara Alisherovna

ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RLARIDA TAKRORNING MATN QISMLARINI
BOG‘LASHDAGI ROLI 183

AZIZ MUSHTARIY!

2025-yilda qadrlı mushtariylarini 1-soni bilan mamnun qilgan “Turkologik tadqiqotlar” jurnali hay’ati sifatida, sharqona yangi yilimizning Turk dunyosi va butun insoniyat uchun tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyatlarga to’la bo’lishini tilaymiz. Bu sonimizda “Turk dunyosi birligida O’zbekiston va Ozarbayjon aloqalarining ahamiyati”, “Turkiy tillar va Ozarbayjon terminologiyasi rivojida birinchi turkologiya qurultoyining o’rni”, Turkman tilida taqvimlar bilan bog’liq shaxs ismlari”, “O’rxun-Enasoy obidalari leksik qatlamining hozirgi o’zbek adabiy tili fonetik-semantik tizimida aks etishi”, “Birinchi Turkologiya qurultoyida mushtarak alifbo va til mavzulari turkiy xalqlarning umumiy muammosi sifatida” kabi bir qator til, madaniyat, tarix, terminologiyaga oid mavzular kiritilgan. Qardosh mamlakatlardagi olimlarning turkologik tadqiqotlar haqida yozgan maqolalari va ilmiy faoliyatlari, xalqlarimiz o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi ko’prik vazifasini o’taydi. Umid qilamizki, turk dunyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalari soha mutaxassilari, doktorant va magistrantlar, yosh tadqiqotchilar uchun foydali bo’ladi...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

As the board of the journal "Turkological Studies," which pleased its valued subscribers with its first issue in 2025, we wish that our oriental new year will be full of peace, prosperity, and success for the Turkic world and all humanity. This issue includes several topics related to language, culture, history, and terminology, such as "The importance of relations between Uzbekistan and Azerbaijan in the unity of the Turkic world," "The role of the First Turkology Congress in the development of Turkic languages and Azerbaijani terminology," "Personal names associated with calendars in the Turkmen language," "Reflection of the lexical layer of Orkhon-Enasoy monuments in the phonetic-semantic system of the current Uzbek literary language," "Common alphabet and language topics as a common problem of the Turkic peoples at the First Turkology Congress." Articles and scientific activities of scientists from fraternal countries on Turkological studies serve as a bridge that strengthens ties between our peoples. We hope that the research results conducted in the Turkic world will be helpful for specialists in the field, doctoral and master's students, and young researchers...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

2025 yilının 1. sayisiyla siz deęerli okurlarımızı memnuniyetle karřilayan “Türkolojik Arařtırmalar” dergisinin yönetim kurulu olarak, Yeni Yılımızın Türk dünyası ve tüm insanlık için barış, refah ve başarılarla dolu olmasını diliyoruz. Bu sayımızda, “Özbekistan-Azerbaycan İliřkilerinin Türk Dünyası Birlięi Açısından Önemi”, “Türk Dilleri ve Azerbaycan Terminolojisinin Geliřiminde Birinci Türkoloji Kongresi'nin Rolü”, “Türkmen Dilinde Takvimlerle İlgili Kiři Adları”, “Orhun-Yenisey Abidelerindeki Sözcükler Katmanının Modern Özbek Edebi Dilinin Fonetik-Semantik Sistemine Yansıması”, “Türk Halkların Genel Sorunu Olarak Birinci Türkoloji Kongresi'nde Ortak Alfabe ve Dil Konuları”, Özbekistan'ın Küresel Başarılarına Sosyokültürel Bir Yaklaşım ve 2024 Yılıının Analizi” gibi dil, kültür, tarih ve terminolojiye ilişkin pek çok konu yer almaktadır. Kardeş ülkelerdeki bilim adamlarının Türkoloji arařtırmaları konusundaki makaleleri ve bilimsel faaliyetleri halklarımız arasındaki baęları güçlendiren bir köprü görevi görmektedir. Türk dünyasında yapılan arařtırma sonuçlarının alan uzmanlarına, doktora ve yüksek lisans öğrencilerine, genç arařtırmacılara faydalı olmasını diliyoruz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Редакция журнала «Тюркологические исследования», радуя своих читателей первым номером в 2025 году, желает, чтобы Восточный Новый год был полон мира, процветания и успехов для тюркского мира и всего человечества. В данный выпуск журнала включен ряд статей на темы, связанные с языком, культурой, историей и терминологией, в частности, «Значение отношений Узбекистана и Азербайджана в единстве тюркского мира», «Роль Первого тюркологического съезда в развитии тюркских языков и азербайджанской терминологии», «Личные имена в туркменском языке, связанные с календарём», «Отражение лексического пласта Урхун-Енисейских памятников в современной фонетико-семантической системе узбекского литературного языка», «Общий алфавит и языковые темы на Первом тюркологическом съезде как общая проблема тюркских народов». Научные статьи по тюркологическим исследованиям и деятельность ученых из братских стран служат мостом, укрепляющим связи между нашими народами. Мы надеемся, что результаты исследований в тюркском мире будут полезны специалистам, докторантам и магистрантам, молодым исследователям...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

O‘RXUN-ENASOY OBIDALARI LEKSIK QATLAMINING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI FONETIK-SEMANTIK TIZIMIDA AKS ETISHI

ALLAMBERGENOVA Muqaddas Ruslanovna,

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

(Nukus, Qoraqalpog‘iston)

E-mail: allambergenovamukkadas@gmail.com

 ORCID: 0009-0008-9059-8259

 DOI: <https://doi.org/10.59251/3060-5318.2025.v1.138.1.3351>

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi yozma yodgorliklar leksik qatlamida aks etgan bir nechta so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilishi, fonetik va semantik jihatdan aks etishi tahlilga tortiladi. Yodnomadagi ayrim konstruksiyalarning ekspressivlik ifodalashi shundan dalolat beradiki, ulardagi ritmik guruhlanish saj, grammatik shakllar takroridan tashqari leksik takror orqali ham amalga oshadi va natijada ritmik-sintaktik parallelizmni keltirib chiqaradi. Yodnomadagi ma‘lum gap bo‘laklarining bir tizim doirasida aynan takrorlanib kelishi yoki variantlashgan shaklda uchrashi ham qadimgi turkiy xalqlarning badiiy tafakkur imkoniyatlari doirasida bo‘lib, yodnomaning kompozitsiyasi va uslubiga aloqador hodisadir. Bitiktoshdagi parallelizmnining har bir ritmik bo‘lagi bir tipda shakllangan va keng tavsiflash xarakteriga ega. Parallelizmnining hosil bo‘lishidagi qonuniyat yana shundan iboratki, unda xalq eposlari uchun xarakterli bo‘lgan vositalar qo‘llanilishi tufayli uning ritmikasida she‘rga xos bo‘lgan ritmik elementlarni kuzatish mumkin. Tahlilga tortilgan so‘zlarning grammatik, leksik, fonetik jihatdan o‘xshashligi va o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. Tahlil davomida O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, qadimgi turkiy lug‘at va o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘rxun-Enasoy obidalari, qadimgi turkiy til, hozirgi o‘zbek adabiy tili, lug‘at, leksema, kun, tun, yoz, qish, oltin, kumush, ko‘l.*

ОТРАЖЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ПЛАСТА УРХУН-ЕНИСЕЙСКИХ ПАМЯТНИКОВ В ФОНЕТО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье проанализировано употребление ряда слов в лексическом пласте древних письменных памятников современного узбекского литературного языка, их фонетическое и семантическое отражение. Экспрессивность некоторых конструкций в памятниках свидетельствует о том, что ритмическая группировка в них помимо рифмы в прозе, повторения грамматических форм реализуется и посредством лексического повтора и, как следствие, ритмико-синтаксического параллелизма. Точное и системное повторение отдельных фрагментов предложений в памятнике или вариативная форма находятся в рамках художественного мышления древнетюркских народов и связаны с композицией и стилем памятника. Каждый ритмический фрагмент параллелизма в эпифании формируется одинаково и носит широкий описательный характер. Закономерность образования параллелизма заключается в том, что благодаря использованию характерных для народного эпоса средств в его ритмике наблюдаются характерные для поэзии ритмические элементы. Изучены грамматические, лексические, фонетические сходства и особенности анализируемых слов. В ходе анализа использованы древнетюркский словарь, этимологический и толковые словари узбекского языка.

Ключевые слова: *Урхун-Енисейские памятники, древнетюркский язык, современный узбекский литературный язык, словарь, лексема, день, ночь, лето, зима, золото, серебро, озеро.*

REFLECTION OF THE LEXICAL LAYER OF ORKHUN-ENASOY MONUMENTS IN THE PHONETIC-SEMANTIC SYSTEM OF THE CURRENT UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abstract: This article analyzes the use of several words reflected in the lexical layer of ancient written monuments in the modern Uzbek literary language, including their phonetic and semantic reflection. The expressiveness of some constructions in the memoir indicates that their rhythmic grouping, in addition to the repetition of rhyme and grammatical forms, is also carried out through lexical repetition. As a result, rhythmic-syntactic parallelism is created. The exact repetition or variant appearance of specific fragments of a sentence in the memoir within a system is also within the scope of the artistic thinking of the ancient Turkic peoples. It is a phenomenon related to the composition and style of the memoir. Each rhythmic fragment of parallelism in the memoir is formed in one type and has a broad descriptive character. The regularity in the formation of parallelism is also due to the use of means characteristic of folk epics, and rhythmic elements characteristic of poetry can be observed in its rhythm. The grammatical, lexical, and phonetic similarities and unique aspects of the words analyzed are studied. The etymological dictionary of the Uzbek language, the ancient Turkic dictionary, and the explanatory dictionaries of the Uzbek language were used during the analysis.

Key words: *Orhun-Enasoy monuments, ancient Turkish language, modern Uzbek literary language, dictionary, lexeme, day, night, summer, winter, gold, silver, lake.*

Kirish. Qadimgi turkiy adabiy tilning qadimiyligi, xususan, miloddan oldingi davrlardagi holati to'g'risida yozma manbalarda ma'lumotlar kam. Xitoy yilnomalaridagina ba'zi ma'lumotlar berilgan. Turkiy til va yozuvning qadimiyligi to'g'risida Xitoy manbalarida berilgan ma'lumotlarni turkiy-run yodgorliklaridagi ma'lumotlar to'ldiradi. Qadimgi turkiy yodgorliklar o'zgarmagan, asl holatini saqlagani va barcha turkiy qabilalar uchun yagona bo'lgani uchun, adabiy til xususiyatini o'zida gavdalantiradi.

O'rxun-Enasoy toshbitiklarining topilishi qadimgi turkiy yozma adabiyot mavjud bo'lganligining yorqin dalilidir. Bu bitiklarda aks etgan badiiy tasvir, g'oya xalq og'zaki ijodida yaratilgan asarlar bilan hamohang turadi. Osmonni muqaddas tangri deb tushunish turkiylar uchun hamma davrlarga xos xususiyat bo'lgan va islomgacha bu ta'limot o'z qimmatini yo'qotmagan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi tarixining ilk davrlari o'rganilganda turkiylar nomi bilan shuhrat qozongan ko'plab xalqlarning madaniyatiga murojaat qilish o'rinlidir. Chunki bugungi kunda mustaqil millat sifatida shakllangan o'zbek, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, ozarbayjon, gagauz, usmonli turk, tatar, yoqut va boshqa xalqlar qadimgi turkiylarning avlodlaridir. Tarixda «turk» so'zi bir qavmga mansub ko'plab xalqlarning umumiy nomi sifatida shakllandi. V asrga oid xitoy manbalarida «turk» so'zi turonliklar, turklar ma'nolarida qo'llanilgan. Mazkur so'z ot ma'nosida kelsa «kuch-quvvat», sifat vazifasida kelsa «kuchli, quvvatli» ma'nosini bergan. Bundan tashqari, u «yetuk», «bilimdon», «dono» kabi tushunchalarni ham ifodalaydi.

Qadimgi turkiy adabiy tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va leksik tarkibi ayni shu yodgorliklarda mujassamlashgan. Yodgorliklarda mavjud leksik qatlam bugungi adabiy

tilimizda ham o‘z ko‘rinishini topgan. Mazkur maqolada O‘rxun-Enasoy obidalarini tilining hozirgi o‘zbek adabiy tilida fonetik-semantik aks etishi haqida so‘z boradi.

Tadqiqot obekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqotning obekti sifatida qadimgi yozma yodgorliklar, ya‘ni O‘rxun-Enasoy obidalarini matni olindi. Shuningdek nazariy jihatdan 2010-yili bosmadan chiqqan, Qosimjon Sodiqov, Qudratilla Omonovning “O‘zbek tilining yozma uslublari tarixidan” nomli asari, Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. T-2000, hamda Древнетюркский словарь. Л.: Наука, 1969. – 677 с lug‘atlari tanlandi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, matn tahlili, sinxron va diaxron tahlil singari usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Leksema “**yoz**” O‘rxun-Enasoy obidalarida “bahor” mazmunida ishlatilgan. *Maği Qorğan qışlap Yazıñğa oğuzğaru su tashiğdimiz. (Kultegin, 48)* Mazmuni: Mag‘i qo‘rg‘onda qoshlab bahorda O‘g‘uz tomonga lashkar bilan chiqdik.

O‘zbek tilida bu so‘z issiq fasl ya‘ni **yoz** ma‘nosini beradi. Yoz-bahor bilan kuz oralig‘idagi fasl. *Yoz yopinchigingni qo‘yma, hishda o‘zing bilasan (Maqol).* Qadimgi turkiy tilda asli “**yilning issiq yarmi**” ma‘nosini (asosan “bahor” ma‘nosini) anglatgan bu so‘z o‘zbek tilida yuqorida ta‘riflangan ma‘noni anglatadi; bu ot asli **ya:z** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan [10, 174]; o‘zbek tilida **a** unlisi **â** unlisiga almashgan: **ya:z > yaz > yâz**. Bu ot asli **yâz- I** (“yoy”) fe‘lining “kurtak (barg) chiqar” ma‘nosidan o‘lib chiqqan bo‘lsa kerak.

Leksema “**qish**” *Maği Qorğan qışlap Yazıñğa oğuzğaru su tashiğdimiz. [Kultegin, 48]* Mazmuni: Mag‘i qo‘rg‘onda qoshlab bahorda O‘g‘uz tomonga lashkar bilan chiqdik. Qish- kuz bilan bahor oralig‘idagi fasl. *Erta qishning sovuq nafasi uning dimog‘iga gup etib urdi (Ibrohim Rahim).* Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli **qış** tarzida talaffuz qilingan [8, 320]; keyinchalik o‘zbek tilida **î** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: **qış > qish**.

Leksema “**yil**” O‘rxun-Enasoy obidalarida yil, ya‘ni 12 oydan iborat vaqt o‘lchovi ma‘nosini ifodalagan.

əlig yыл içig kuçig bərmish (Kultegin, 8). Mazmuni: Ellik yil mehnatini, kuchini sarf qilibdi. *Kultigin qony yылqa yəti yəğirmika uçtı..* Mazmuni: Kultegin qo‘y yilida, o‘n yettinchi kunda uchdi (vafot etdi). (Kultegin, 54).

Leksema **Yil** - Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati. “*Yana ikki yil kut deysizmi?*” -dedi tutaqib xotini (Mirzakalon Ismoilij). Qadimgi turkiy tilda asli hayvonlar nomi bilan ataluvchi o‘n ikki oylik muddat ma‘nosini anglatgan bu ot **yıl** tarzida talaffuz qilingan [10, 10] o‘zbek tilida **î** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: **yıl > yil**.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarni ifodalab keladi:

1. Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati; o‘n ikki kalendar oyiga teng vaqt, shunday vaqtga teng o‘lchov. *O‘tgan yil. Bu yil. Yilning to‘rt fasli. 2006 yil uchun obuna davom etmoqda. Gazetadan . Bu yil yog‘in-sochin ko‘p bo‘lib, yer-ko‘k chamanday yashnab ketdi. S. Siyoyev, „Yorug‘lik“.*

2. Biror hodisa, voqea yuz bergan kundan boshlab o‘tgan o‘n ikki oylik vaqt. *Uning ishga kirganiga besh yil bo‘ldi. O‘. Hoshimov, „Qalbingga quloq sol“.*

3. O‘n ikki oylik vaqt bilan hisoblanadigan kalendar tizimi. Milodiy yil. Hij-riy yil. Kabisa yili. Quyosh yili. Oy yili. Qamariya yil hisobi kabi.

4. O‘quv yili Yozgi ta‘til oxiridan boshlab kelgusi yozgi ta‘til boshlanishigacha bo‘lgan o‘qish muddati. *Texnikum yangi o‘quv yiliga katta tayyorgarlik bilan keldi. Gazetadan .*

5. Yil oshi *eti*. Kishi vafotidan keyin, odatda, to‘qqizinchi yoki o‘n birinchi oyda xaloyiqqa osh berib o‘tkaziladigan marosim. *Ota-onamiz uchun yil oshi berish va ikki ukamizni to‘y qilish edi. S. Ayniy, „Esdaliklar“. Azizaning yil oshisidan keyin o‘rtoqlari uylanishga majbur qila boshladilar. H.G‘ulom, „Toshkentliklar“.*

Leksema **ko‘l**. O‘rxun-Enasoy obidalarida mazkur so‘z hozirgi adabiy tilimizdagi kabi “ko‘l” ma’nosida ishlatilgan: *qara kōlta sujuštimiz.. (Kultegin, 42)*. Mazmuni: Qora ko‘lda jang qildik. Ko‘l - atrofi quruqlik bilan o‘ralgan, hajmi dengizdan kichik suv havzasi. *Cho‘lda yurgan qo‘ngir g‘oz ko‘l qadrini ne bilur (Maqol)*. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli *kōl* tarzida talaffuz qilingan [10, 149;], o‘zbek tilida **ö** unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **kōl** > **kol**. Bu ot dastlab har qanday suv havzasini anglatgan keyinchalik ma’noda torayish voqe bo‘lib, daryo, dengizlarni anglatmay qo‘ygan. **Ko‘l**- Quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi. *Katta ko‘l. Cho‘lda yurgan qo‘ng‘ir g‘oz, ko‘l qadrini ne bilur. Maqol. Toma-toma ko‘l bo‘lar. Maqol. [G‘ulomjon] Oy yorug‘ida kumush tovlab turgan ko‘lning chap qirg‘og‘i bilan pastga tushib bordi.(M. Ismoil, Farg‘ona tong otguncha)*

Leksema **tash** - Qadimgi yozma yodgorliklarda “tosh” ma’nosini ifodalash uchun tas leksemasi ishlatilgan: 1. *Nañ nañ sabıym ərsar, bangu taşqa urtıym. (Kultegin 11)*. Mazmuni: Qanday nima so‘zim bo‘lsa mangu toshga o‘ydim. 2. *ıda taşda qalmyşı qobranip, yəti yuz bolty. (Tonyuquq 4)*. Mazmuni: Unda bunda qolgani to‘planib, yetti yuz nafar bo‘ldi.

Leksema **tosh**-qattiq tog‘ jism. *Suv ketar - tosh qolar, o‘sma ketar - qosh qolar. „Maqol“*. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli **ta:sh** tarzida talaffuz qilingan o‘sha davrlardayoq **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan [10, 166], o‘zbek tilida bu unli **â** unlisiga almashgan: **ta:sh** > **tash** > **tâga**.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarni bildirib keladi:

1. Yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo‘rt tog‘ jinslarining umumiy nomi. Oq tosh. Ohak tosh. Marmar tosh. Chaqmoq tosh. Xarsang tosh. Qayroq toshi. Yo‘lga tosh yotqizmoq. *Tog‘ning ko‘rki - tosh bilan, Odamning ko‘rki - bosh bilan. Maqol.*

2. Qirg‘oqdan oshmoq, qirg‘oqdan oshib, atrofga yoyilmoq, atrofni bosmoq. *Hovliga suv toshib ketibdi. Yer islohotidan keyin bir yil daryo toshib, ekinlarning yarmidan ko‘pi nobud bo‘ldi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari*

3. Ko‘chma ma’noda: Jo‘sh urmoq, oshib ketmoq. G‘azabi toshdi. *To‘lamat polvonning ko‘zlari chaqnab, g‘ayrati toshib ketdi. S. Anorboyev, Oqsoy.*

4. Ko‘chma ma’noda tutaqishmoq, qizishmoq. Erimdan o‘qishga rozilik berishini iltimos qildim. *O‘sha paytda Ergash akamning tepa sochi tik bo‘lib birpasda ko‘pirib toshdi-ketdi. B. Fayziyev, Oydin kechada.*

5. Badanda paydo bo‘lmoq, yuzaga tepmoq, chiqmoq. *Lablariga toshgan uchug hali rostmana qaytmagan bo‘lsa-da, isitmasi pasaygan edi. R. Rahmonov,*

6. Shunday tog‘ jinslarining ziynat buyumlari yasash yoki ularni bezatish uchun ishlatiladigan navlarining umumiy nomi: Qabr toshi. Marmar tosh. *Oltin, kumush - tosh emish; arpa, bug‘doy - osh emish. Maqol. [Doroning] Qo‘lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong‘i kechadagi yulduzlardek porlar edi. M.Osim, „Shiroq“.*

7. Ba’zi so‘zlar bilan qo‘llanib, shu so‘zlar anglatgan narsaning tosh kabi yog‘iluvchi (otiluvchi) narsa sifatida bildiradi: *Ular Abdurasul ustiga la‘nat toshini yog‘dirib, uning sha‘niga yolg‘onlarni to‘qir edilar. P. Tursun, „O‘qituvchi“. -Niyatingiz tezroq mendan qutulish,*

ortiqchalik qilayotganimni sezib turibman, - deb ta'na toshi otgani-otgan. J.Abdullaxonov, „Xonadon“.

8. Narsalarning vaznini o'lchash, tortish uchun belgilangan, turli shakl va og'irlikdagi yuk, qadoq tosh: Tarozi pallasiga tosh qo'ymoq. Bir kiloli tosh; *Sharofat.. bu kecha shu yerda qolib, Sidiqjonni bu yerga bog'lagan, uning dimog'ini shishirgan narsani yaxshilab bilmoqchi va shunga qarab tosh qo'ymoqchi bo'ldi. A. Qahhor, „Qo'shchinor chiroqlari“.*

9. Tosh bosmoq 1) ma'lum (mo'ljal)dagisi og'ir-likka ega yoki ega emaslikni bildiradi: - Hali siz aytganingizdek, - dedi Oliyaxon, - pillasi ham tosh bosmaydi. *N. Safarov, „Oliyaxon Sultonova“*; 2) salmoq-salobatga ega bo'lmoq¹: Keling, so'zlaringizni taroziga solaylik, puchmi yoki tosh bosadimi, darrov ma'lum bo'ladi. *Sh. Rashidov, „Bo'rondan kuchli“.*

10. Tibbiyotda kasallik tufayli ba'zi a'zolarida yuzaga keladigan qattiq modda. Buyrak toshi. Toshni oldirmoq.

11. Tosh (erkaklar va xotin-qizlar ismi). Toshtemir, Toshxo'ja kabi.

Leksema **qum**. O'rxun-Enasoy obidalarida mazkur leksema qum, ya'ni tabiatda mavjud bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi ma'nosini ifodalagan. *Çuğay quzin Qara qumuğ olurur ertimiz. (Tonyuquq, 7).* Mazmuni: Chug'ay quz¹ni va Qora qumni manzil qilib olgan edik.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi (asosan qurilishda va qurilish materiallari ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalaniladi). *Qumdan qo'rg'on bo'lmas. Maqol. Tut darvoza oldiga to'kilgan qumda o'ynab o'tirgan bolakaylarga birpas zavq bilan qarab o'tirdi. N. Aminov, Suvarak.*

2. Qumlik joy nomini bildirib keladi. *Karvonlar qumda adashib, sargardon bo'lmaydilar. Mirmuhsin, Me'mor. Bir yigit chirog'i o'chirilgan mototsiklini quyunday uchirib, qum ichkarisiga kirib ketdi. S. Siyoyev, Yorug'lik*

3. Sifat ma'nosida, ya'ni qumga o'xshash, mayda. qum shakar. *Jo'raposhsha bo'ynidan qum marvarid marjonini chiqardi-da, ipini shart-shurt uzib, marvaridlarni kigizga to'kdi. M. Ismoilov, Farg'ona tong otguncha.*

4. Ibora ma'nosida: *Rangi qum o'chdi (yoki oqardi) Sveta konvertini olib ochdi, xatga ko'z yuritdi-yu, rangi qum o'chib ketdi. V. G'ofurov, Vafodor. Kelling rangi qum oqarib ketgan, dag'-dag' titrar emish. S. Ahmad, Cho'l burguti*

Leksema **Oltin**. Yozma yodgorliklar tilida yana “Oltin” leksemasi ham uchraydi. 1. *Altun, kumush içigti, qutay buñsiz ança baru... (Kultegin, 5).* Mazmuni: Oltin, kumush ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan.. 2. *Sariğ altun, urun kumuş, qiz quduz, əgri təvi, ag'ı buñsiz kəhurti... (Tonyuquq, 48).* Mazmuni: sariq oltin, oq-kumush, qiz-juvon, egri tuya, ipak hadsiz keltirdi(lar).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi ma'nolarni bildirib keladi:

1. Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element; sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metal, zar, tilla. Sof oltin. Oltin soat. *Yo'qolgan pichoqning sopi oltin. Maqol. Direktor o'sha terilar uchun ko'rgazmaning oltin medalini oldi. S. Ahmad, „Yulduz“.*

2. Ko'chma ma'noda. Har qanday qimmatbaho yoki aziz narsa haqida. *Yer-xazina, suv-oltin. Maqol Qo'shiq aytib kelaman qir yoqalab. Gul-chechaklar teraman Sir yoqalab. Ter to'kib yetishtirgan “oltinimiz” Turadi chanog'ida bizga qarab. “Folklor”.*

¹ Tog'ning quyosh tushmaydigan Tomoni.

3. Shu metallardan zarb qilingan pul. *Homid yonchig‘ini chiqarib, bir qo‘lidan ikkinchi qo‘liga oltinlarni sanab tushira berdi. A. Qodiriy, „O‘tgan kunlar“. Bunchalik dabdaba, albatta, xazinadagi oltinlar kuchi bilan bo‘lgandir, deb bazilarning ko‘ngliga kelar. A. Qodiriy, „Mehrobdan chayon“.*

Leksema **kumush**. Mazkur so‘z ham qadimgi turkiy obidalarda uchraydi: 1. *Altun, kumush içigti, qutay buñsiz ança bəru... (Kultegin, 5)*. Mazmuni: Oltin, kumush ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan.. 2. *Sariğ altun, urun kumuş, qiz quduz, əgri təvi, ag‘bi buñsiz kəhurti... (Tonyuquq, 48)*. Mazmuni: sariq oltin, oq-kumush, qiz-juvon, egri tuya, ipak hadsiz keltirdi(lar).

Kumush - oq-ko‘kish rangli qimmatbaho ma‘dan. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli **ko‘müsh** tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 351;), o‘zbek tilida **ü** unlilarining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **kümüş** > **ku-mush**. Bu ot o‘zbek tilining ayrim shevalarida **komish (ko‘mish)** tarzida buzib talaffuz qilinadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma‘nolarda ishlatiladi:

1. Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiga mansub kimyoviy element, oq-ko‘kish rangli yaltiroq, asl metall. *Analitik ishlarning talaygina qismi ruda materiallaridan oltin, kumush, rux va boshqa nodir elementlarni aniqlash bilan bog‘liqdir. Fan va turmush*

2. Kumushdan ishlangan, kumush ishlatilgan. Kumush tanga. Kumush barkash. *Mehmonxonasidagi ikki kumush qandil porillab yonib turibdi. K. Yashin, Hamza*

3. Ko‘chma ma‘noda. Kumushga nisbat bildiradi. Kumush tola, *Tashlandiq tegirmonning chirik novidan suv mayda kumush tomchilarni sachratib, guvullab otiladi. Oybek, Tanlangan asarlar*

4. Kumush (xotin-qizlar ismi).

Leksema **temir**. Mazkur so‘z VIII asrga tegishli dastlabki yozma yodgorliklarda uchraydi. Asosan, Bilga xoqon va Kultegin bitiktoshlarida joy nomini ifodalash maqsadida ishlatilgan. *Təmur qapıg‘qa tag‘ı suladim. (Kultegin, 4)*. Mazmuni: Temir qapig‘gacha lashkar tortdim.

Temir-qoramtir kumush rangli og‘ir metall. *Uning o‘n uch yashar o‘g‘li dam bosib, kichik bolg‘a bilan temirni urib, dadasiga yordamlashardi (Oybek)*. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli **tämür** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq temür, temir shakllari yuzaga kelgan [8. 342, 464;] **tämür** > **temür** > **temir**. Hozirgi adabiy tilda quyidagi ma‘nolarda ishlatiladi:

1. Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element, bolg‘alanganda yassilanadigan, istalgan shaklga kiradigan, uglerod bilan qo‘shilganda, po‘lat va cho‘yan hosil qiladigan qoramtir kumush rangli og‘ir metall. Sof temir. *Magnit ham temirni domiga tortadi, kesakni torta olmaydi. P. Qodirov, Uch ildiz*

2. Umuman, temir, po‘lat va shu kabilar va ulardan yasalgan buyum-narsalar. Temir qoshiq. Temir ko‘prik. Temir panjara. Temir o‘choq. Temir darvoza. *Yigit uzoqda haybatli temir uyumlari singari ag‘nab yotgan pachoq parovozlarga tikildi. Oybek, Quyosh qoraymas. Samolyotning kichkinagina zinapoyasiga bir oyog‘imni qo‘yib, eshigidan ushlagan edim, qo‘llarim temirga chip etib yopishib qolsa bo‘ladimi! N. Fozilov, Diydor*

Leksema **yog‘och**. Qadimgi turkiy yodgorliklarda, asosan Tonyuquq bitiktoshida uchraydi. *yg‘ach tutunu ağırtum öñrəki ar... (Tonyuquq, 25)*. Mazmuni: ...yog‘och tutinib, chiqardim oldindagi yigitlar...

Yog‘och. Kesilgan daraxtning tanasi. *Esimda Anhorning yog‘och ko‘prigi, Bu yerni azaldan deyishgan O‘rda (Maqsud Shayxzoda)*. Bu so‘z qadimgi turkiy tilda o‘simlik ma‘nosini anglatgan **ï** otidan **katta** ma‘nosini ifodalovchi **-g‘ach** qo‘shimchasi bilan yasalgan, keyinroq so‘z

boshlanishiga y un-doshi qo‘shilgan (Devon, III, 15;), so‘ngra ayrim turkiy tillarda y undoshidan keyingi i unlisi a unlisiga almashgan, o‘zbek tilida a unilari â unililariga almashgan: i + g‘ach = iġ‘ach > yġ‘ach > yag‘ach > yâġ‘âch. Hozirgi adabiy tilimizda quyidagi ma’nolarda ishlatiladi:

1. Daraxt, og‘och. *Otabek hovlining o‘rtasida, tut yog‘ochining yoniga kelib to‘xtagan va janubda kishi yo‘qmi, deb alanglar edi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar*

2. Yog‘ochdan qilingan, yog‘ochli. *Esimda Anhorning yog‘och ko‘prigi, Bu yerni azaldan deyishgan O‘rda. M. Shayxzoda*

3. Qurilish materiali, xoda. *Sidiqjon onasi kutgandan ham ortiqroq g‘ayrat qilib, hash-pash deguncha yog‘och, somon, bo‘yra, taxta va boshqa narsalarni tashib oldi va tezdan usta soldi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari*

Leksema **kun**. Qadimgi yozma yodgorliklarda kun leksemasi tüz qo‘shimchasi bilan qo‘llangan. *Küntüz olursıyım kəlmədi. (Kultegin, 12.)* Mazmuni: ...Kunduz o‘tirgim kelmadi. Shuningdek, Kun leksemasi juda yodgorliklarda bir nechta so‘zlarning tarkibida uchraydi: **kün batsuq**-g‘arb, **kuntog‘**-suq-sharq. **Kün toġsıy** so‘zi o‘rxun-enasoy obidalarida tez-tez uchraydigan so‘zlarning biri. Bunda **kün**-kunning yorug‘ qismi, **toġ**- tug‘ilish degan ma’nolarni bildiradi: *Ilgəru küntoġsıyqa birgəru kun ortusıngəru, qurıġaru kun batsıyqınga...* (Kultegin 2). Oldingga kunchiqarga, o‘ngga janubga, orqaga-kunbotarga, chapga-shimolgacha bo‘lgan... bundan kelib chiqib, **kün batsuq** – g‘arb ya’ni kun botadigan tomon, **Kün toġsıy**-sharq ya’ni kun chiqadigan tomonni ifodalab kelgan.

Kun. I yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta, quyosh. *Oy chiqsa ham, shunga chiqsin, kun chiqsa ham, shunga chiqsin (Maqol).* Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli **kün** tarzida talaffuz qilingan [8, 327;], o‘zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **kün** > **kun**. Kun II. sutkaning quyosh chiqishidan botishigacha bo‘lgan (yorug‘) qismi. Shunday jazirama kunlarda ko‘ngil dalani qo‘msaydi (Hamid G‘ulom). Bu ot qadimgi turkiy tilda **quyosh**, **oftob** ma’nosini anglatuvchi **ko‘n I** otidan ma’no taraqqiyoti asosida o‘sib chiqqan. keyinchalik ü unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **kün I** > **kün II** > **kun II**. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

1. Quyosh, oftob. *Kun tepadan tig‘ urayotganda, mashina obodgina bir qishloqqa kirib keldi. S. Ahmad, Ufq. Mana, kun ham terak bo‘yi ko‘tarilib qoldi. S. Yunusov, Kutilmagan xazina*

2. Sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botgungacha bo‘lgan qismi. *Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar*

3. Bir kecha-kunduzga - 24 soatga teng vaqt; sutka. Bir yil - 365 kun. *Uch-to‘rt kungacha Avaz mozoristondan chiqmadi. S. Siyoyev, Avaz*

4. Oy yoki haftaning ma’lum bir kalendar sanasi; ma’lum bir hodisaga bag‘ishlangan kun, sana. *Shanba kuni siz keling, yakshanba kuni men boray. Qaysi kunlarda uyda bo‘lasiz? - Chorshanba, juma kunlari. Quruvchilar kuni. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida qishloq mehnatkashlari uchun an‘anaviy teatr kunlari boshlandi. Gazetadan*

5. ko‘plik shaklida Kunlar bilan belgilanuvchi vaqt, payt, kez, davr. *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda Ko‘p ertak eshitgandim. H. Olimjon.*

6. Ob-havo, ob-havo sharoiti. *Mayning o‘rtalari bo‘lsa-da, kun issiq edi. S. Siyoyev, Yorug‘lik. Noyabr o‘rtalab, kunlar sovigan edi. S. Ahmad, Yulduz*

7. Ayrim so‘zlar bilan qo‘llanib, ahvol, sharoit ma’nosini bildiradi. *Boshingizga og‘ir kun tushdi. Mirmuhsin, Me‘mor*

Leksema **tun**. O‘rxun-Enasoy obidalarida tun leksemasi ham uchraydi: *...tun ıdısıyım kəlmədi (Tonyuquq, 12.)*, Mazmuni: tun uxlagim kelmadi.. *Yobaltu intimis on tünkə yantaqı tuġ*

abiru bardımyız. (Tonyuquq, 26). Mazmuni: qiynalib indikk(pastga tushdik). O‘n tunda yondagi to‘siqni aylanib bordik. Bu o‘rinlarda ko‘rinib turganidek, sutkaning qorong‘i qismi, kechki payt nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari obidalarda, tun so‘zi yana dunyoning tomonlarini ifodlaashda qo‘llanilgan: *yırğaru tun ortusıngaru.. (Kultegin, 2).* Mazmuni: chapga shimolgacha... bu o‘rinda **tun ortusıngaru**, ya‘ni **shimol** ma‘nosini anglatib kelgan.

Tun - bu osmon jismining (sayyora, uning sun‘iy yo‘ldoshi va boshq) markaziy yoritgich (Quyosh, yulduz) ufq chizig‘idan pastda joylashgan vaqti. Muayyan nuqta uchun “tungi davr”ning davomiyligi uning kengligiga, sayyoraning aylanish o‘qining orbita tekisligiga nisbatan moyilligiga va aylanish o‘qi tomonidan yaratilgan burchakka va markazga nisbatan yo‘nalishiga bog‘liq. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tun so‘zi quyidagi ma‘nolarda qo‘llaniladi.

1. Sutkaning kun botishdan kun chiqqungacha, oqshomdan tongotargacha bo‘lgan qismi. Oysiz tun. Tun kapalagi. *Oy tunda kerak, Aql kunda kerak. Maqol. Ochil yarim tungacha ko‘chalarda tentirab yurdi, yotoqqa borsa, yana tun bo‘yi uxlay olmay chiqishini bilar edi. P. Qodirov, Uch ildiz*

2. Tun qorong‘isi, qorong‘ilik. Bahor keldi, *Tun bag‘rida Yarq etganday bo‘ldi nur. E. Vohidov, Nido. Hali tong otmagan, kulrang osmon asta-sekin oqara boshlaganiga qaramay, xiyobonlar, ko‘chalar, binolarning pastki qavatları tun qo‘ynida edi. O‘. Umarbekov, Yoz yomg‘iri*

Xulosa. Qabrtoshlarda bag‘ishlov egasi bo‘lgan shaxslarning amalga oshirgan ishlari, jumladan, turkiy xalqlarni birlashtirish, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashdagi xizmatlarga alohida e‘tibor beriladi. Tabiiyki, yozuvlarda dabdabali motam ruhi, yo‘qotish iztirobi sezilib turadi. Ushbu toshbitiklar birinchi navbatda VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida yuz bergan shiddatli tarix voqealarining konkret taqdirlar misolidagi badiiy ifodasidir. Ularni anglash, teran his qilish o‘zligimizni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yodgorliklarda aks etgan tarixiy jarayon o‘sha davr hayotidan xabar bersa, obidalar tili, leksikasi ajdodlarimizning so‘zlashuv uslubi, adabiy til taraqqiyotini belgilaydi. O‘rxun-Enasoy obidaları, bir tomondan xalqimiz hayotining VII-VIII asrdagi murakkab tarixini, adabiy tilini hayajonli va ta‘sirchan lavhalarda bizga yetkazib qoldirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular millatning birligini saqlash, o‘zaro ahillikka da‘vat etish vositasi bo‘lgan. Mazkur obidaların tarixiy, ma‘rifiy va badiiy qiymatini shularda ko‘rishimiz mumkin [2.47].

Tadqiq qilingan leksemalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek tili va O‘rxun-Enasoy obidaları tili genetik va kognitiv jihatdan o‘zaro bog‘liq. Tahlillardan ko‘rinib turganidek, yuqoridagi leksemaların deyarli barchasida mazmun-mohiyat, qo‘llanilish maydoni leksik jihatdan o‘xshash. Bu holat tillarning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari davomida bir xil davrlardan o‘tganligi bilan bir qatorda, yashash tarzi, madaniyati, etnik shakllanishi ham bir xil degan mazmunga keladi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Azimov I., Rahmatov M., Ancient Turkic language. – Tashkent, 2005. – 134 p.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Historical of the Uzbek language grammar. – T., 2008.
3. Sodikov Q. Old Turkish texts. – T., 2009.
4. Sodikov Q. The language of Turkish written monuments: the emergence and revival of the literary language. – T., 2006.
5. Izoh.uz – O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2014–2025.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T., 2000.

7. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 677 с.
8. Кошғарий М. Девону луғотит-турк. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1960. – 499 б.
9. Кошғарий М. Девону луғотит-турк. 2-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1961. – 427 б.
10. Кошғарий М. Девону луғотит-турк. 3-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1963. – 466 б.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
 2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
 - Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages.
 - The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
 - Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
 - Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
 - Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy, ilmiy rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o'tkazilgan sammitida ko'zda tutilgan o'zaro aloqalarni jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta'sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e'lon qilishga mo'ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e'tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O'zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



JURNAL QUYIDAGI YO'NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Elektron pocha:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snokalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
- Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и снизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа A4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
- Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекомендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmi yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütun olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
 - Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmemelidir.
 - Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
 - Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalden yazar(lar) sorumludur.
 - Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
 - Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
 - Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

**ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2025-yil 22-martda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 25-martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i –12.5.

Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 215

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229



9

772992

922004